

AXLOQIY TARG‘IBOTNING JANRVIY FARQLARI: TOK-SHOU, SERIAL, VLOGLAR

Bahodirova Sevinch

O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy media vositalarida axloqiy targ‘ibotning turli janrlarda — tok-shou, serial va vloglar shaklida ifodalanishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’sirchanlik darajasi hamda auditoriyaga yetkazish uslublari tahlil qilinadi. Har bir janrning afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi, axloqiy qadriyatlarni ommaga singdirishda ularning roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy targ‘ibot, tok-shou, serial, vlog, mediajanr, ommaviy madaniyat, axborot maydoni

Bugungi kunda media va axborot kommunikatsiya vositalari jamiyat axloqiy qarashlarini shakllantirishda, ma’naviy qadriyatlarni ommalashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, tok-shoular, seriallar va vloglar kabi ommabop janrlar orqali inson ongiga ta’sir qilish, ijtimoiy muammolarni yoritish, axloqiy targ‘ibotni samarali amalga oshirish mumkin bo‘lmoqda. Har bir janrning o‘ziga xos ifoda uslubi, tinglovchi yoki tomoshabinni qamrab olish imkoniyatlari mavjud. Ushbu maqolada zamonaviy media janrlarining axloqiy targ‘ibotdagi o‘rni va ularning janrlararo farqlari tahlil qilinadi.

Tok-shou — bu turli mavzular bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish, axloqiy mezonlarni muhokama qilish va ijtimoiy ongni tarbiyalash imkonini beruvchi mediajanrdir. Tok-shoular odatda jonli efirda yoki montaj qilingan ko‘rinishda namoyish etiladi.

Tok-shoularning afzalliklarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- Real insonlar ishtirok etadi, bu esa tomoshabinda ishonch uyg‘otadi.
- Ijtimoiy hayotdagi eng muhim muammolar muhokama qilinadi.
- Har xil qarashlarning to‘qnashuvi orqali axloqiy pozitsiyalar ajralib

chiqadi.

Tok-shouda mutaxassis, jurnalist, shifokor yoki ruhshunoslarning fikrlari axloqiy targ‘ibotni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Masalan, “Yuzma-yuz”, “Ochiq suhbat” kabi ko‘rsatuvlar orqali jamiyatda muhim axloqiy masalalar ochiq va jamoaviy muhokama qilinadi.

Serial janri — dramatik voqealar asosida tuzilgan ko‘p qismli film shaklidir. U o‘zida hayotiy holatlarni, insoniy munosabatlarni, jamiyatdagi muammolarni badiiy ifoda orqali ko‘rsatadi. Bu janr orqali axloqiy g‘oyalarni chuqur va bosqichma-bosqich singdirish mumkin.

Seriallarning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki , personajlar taqdiri orqali tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari ko‘p qismli format orqali tomoshabin muayyan qadriyatlarga odatlanadi. Emotsional ta‘sir jihati esa tomoshabinlar voqealarga aralashgandek bo‘ladi.

Vlog (video blog) – bu odatda individual shaxs tomonidan tayyorlanadigan, hayotiy tajriba va kuzatuvlar asosida tuzilgan videokontentdir. YouTube, Instagram, TikTok kabi platformalarda keng tarqalgan vloglar yosh avlod orasida eng ta‘sirchan axborot manbai hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyati yoshlarning axloqiy qarashlari va xulq-atvori uchun yangi mezonlarni shakllantirayotgan asosiy omillardan biri sanaladi. ¹

Vloglarning axloqiy targ‘ibotdagi o‘ziga xos jihatlari sanab o‘tadigan bo‘lsak , avvalo ularda bloger o‘z tajribasi, hayoti orqali masalalarga yondashadi. Tomoshabin blogerni do‘stdek qabul qiladi va o‘zida unga nisbatan ishonch shakllanadi. Vloglar izohlar orqali baholash ommaga shaxsiy fikrni bo‘lishish imkonini bera oladi.

Toxirov, A. A. (2025). Ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyati: Yoshlar axloqining yangi mezonlarini shakllantirayotgan omil sifatida. TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali, 62(4), 264–270. URL: <https://scientific-jl.com/tad/article>

Blogerlar ko‘pincha halollik, mehr-oqibat, yordam, sabr-toqat, ekologiya, iste‘mol madaniyati kabi mavzularni o‘z auditoriyasiga sodda va tushunarli tilda yetkazadi. O‘zbek blogerlarining ijtimoiy eksperimentlar, foydali maslahatlar, axloqiy sinovlar haqidagi videolari keng auditoriyani qamrab olmoqda.

Ammo yuqorida aytilgan serial , vloglar va tok shoularning salbiy taraflarini ham unutmasligimiz kerak . Chegaradan chiqarilgan har qanday targ‘ibot albatta o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Jamiyatga , axloqqa mentalitetga uyg‘un shaklda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Zamonaviy mediajanrlar orasida tok-shou, serial va vloglar axloqiy targ‘ibotda muhim o‘rin tutadi. Har bir janrning o‘ziga xos metodikasi, auditoriyaga murojaat qilish uslubi mavjud. Tok-shoular ochiq va jamoaviy muhokama maydoni bo‘lib xizmat qilsa, seriallar orqali badiiy obrazlar yordamida axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Vloglar esa shaxsiy va samimiy yondashuv orqali, ayniqsa yosh avlodni ma‘naviy yuksaltirishda foydalidir. Maqsadga erishish uchun bu janrlarni bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Ommaviy axborot vositalari va axloqiy qadriyatlar. Toshkent: Ma‘naviyat, 2021.

2. Xudoyberdiyeva G. Zamonaviy jurnalistika janrlari. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020.
3. Akramov O. Media va axloq: zamonaviy yondashuvlar. Jurnalistika jurnali, 2023, №1.
4. www.uzreport.news – O‘zbek tok-shoulari tahlili.
5. YouTube: O‘zbek blogerlarining ijtimoiy axloqiy mavzulari (muayyan videolar tahlili).

